

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**FEVRAL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>



# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 12-fevral

**Mas'ul muharrir:**  
Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Nazirov Sardor*

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN  
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI ..... 5-8

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora*

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI ..... 9-12

### TARIX FANLARI

*Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda*

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI ..... 13-15

### IQTISODIYOT FANLAR

*Mengniyozov Anvar*

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI ..... 16-20

### FALSAFA FANLARI

*Nabiyev Sherzodjon*

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI ..... 21-26

### FILOLOGIYA FANLARI

*Nasriyev Nurullo*

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING  
AHAMIYATI ..... 27-28

### YURIDIK FANLAR

*Xursanov Shamsiddin*

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI ..... 29-33

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Sodiqova Gulnora*

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI  
TRANSFORMATSIYA QILISH ..... 34-39

*Ganiyev Elyorbek*

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI ..... 40-45

*Xabibullayev Alimardon*

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL  
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) ..... 46-51

*Nigmatova Nozimaxon*

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT  
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 52-54

*Abdullayeva Asila*

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIMDA  
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH ..... 55-60

*Ergasheva Nigora*

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM  
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ..... 61-64

*G'ofurova Barnoxon*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR ..... 65-68

*Shamsiddinova Durdona*

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI ..... 69-71

*Yuldasheva Maftuna*

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR ..... 72-77

*Butayev Norbek*

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI ..... 78-80

*Rajapov Sulaymon*

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 81-84

*Samandarova Nargiza*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH ..... 85-87

*Sobirov Qobuljon*

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI ..... 88-93

*Raxmanova Nigora*

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI ..... 94-99

*Xalberdiyev Ziyodilla*

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI ..... 100-102

*Kamolov Baxtiyor*

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH ..... 103-108

## **TIBBIYOT FANLARI**

*Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза*

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ ..... 109-115

## **SIYOSIY FANLAR**

*Уразбаев Абатбай*

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 116-120

## FILOLOGIYA FANLARI

### ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

**Nasriyev Nurullo**

O'zbekiston Milliy axborot agentligi

Siyosat va yangiliklar tahririyati bosh muharriri o'rinbosari

ORCID: 0009-0004-4645-3184

**Annotatsiya.** OAV va ommaviy kommunikatsiya tarixi shuni ko'rsatadiki, soha taraqqiyotidagi eng katta ta'sirlaridan biri iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lgan. Aynan iqtisodiyot OAVning maqsad va vazifalari, mazkur sohadagi tashkilotlarning yuzaga kelishi va rivojlanishini belgilab beradi. Umuman olganda, mediabiznes tushunchasi nafaqat media sohasida balki, zamonaviy axborot makonini boshqarish, yo'naltirish va targ'ib qilish funksiyalarini ham o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** OAV, ommaviy kommunikatsiya, boshqarish, mediabiznes, axborot, targ'ib qilish, funksiya.

### THE IMPORTANCE OF THE MEDIA BUSINESS CONCEPT IN THE MODERN INTERNATIONAL INFORMATION MARKET

**Nasriev Nurullo**

Deputy Editor-in-Chief,

National Information

Agency of Uzbekistan

Politics and News Editorial Board

**Annotation.** The history of media and mass communications shows that economic factors are among the primary influences on the industry's development. Economics determines the goals and objectives of media outlets and the emergence and development of organizations within this sector. In general, the concept of media business encompasses not only the media sector but also the functions of managing, directing, and promoting the modern information space.

**Key words:** media, mass communication, management, media business, information, promotion, function.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n06>

#### Kirish

Ayni paytda axborot manbalari ham misli ko'rilmagan darajada ko'payib ketgan. Yangiliklarni an'anaviy televideniye, radio va gazeta orqali olish endi eskirgan usul, internet yoki unida ortga qoldirgan sun'iy intellekt (AI) egallab bormoqda. Oddiy qilib aytganda, jurnalistika asosini tashkil etadigan oddiy axborot turli ko'rinish vva turli yo'llar bilan aholiga yetib kelmoqda. Sababi, dunyoda axborot uzatuvchi vositalar ko'p va rangbarangdir. Bularning barchasi odamlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun o'zaro keskin raqobat olib boradi. Har bir OAV dunyodagi barcha o'zgarishlarni kuzatib bora olmasligi tabiiy hol. Shuning uchun ham ba'zi OAV o'z muhbirlari tarmog'ini kengaytirishga intilsa, ba'zilari boshqa xalqaro axborot xizmatlari yordamidan foydalanishga majbur bo'ladi.

Mediabiznes sarmoya kiritishning eng daromadli sohalardan biriga aylanib qolgani ajablanarli emas. Uning asosida mediaindustriya yotadi, ya'ni ommaviy axborot uzatish bilan

bog'liq sanoat yuzaga keldi. Mediabiznes tushunchasiga "Bosma ommaviy axborot vositalari uchun qo'llanma" kitobida shunday ta'rif beriladi. "Mediabiznes – OAV tizimidagi ishbilarmonlik faoliyati bo'lib, undan maqsad moddiy daromad olishdir" [1. 111-b]. Rossiyaning ushbu sohadagi yetakchi mutaxassislaridan biri hisoblangan Yelena Vartanova "mediaindustriya" tushunchasiga ta'rif berar ekan, uni "zamonaviy biznesning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan, katta muvaffaqitga erishayotgan daromadli sohadir", - deydi [2. 3-ctr]. Vartanovanning ta'kidlashicha, OAVni moliyalashtirish va boshqarish har bir mamlakatda o'ziga xos milliy xususiyatga ega bo'lsada, iqtisodiy rivojlangan demokratik mamlakatlarda mediaiqtisodiyot qonun-qoidalari bir xil tarzda shakllanib ulgurgan. Zamonaviy jamiyatda bu qonun-qoidalarni bilmasdan turib, hech bir jurnalist o'zining professional va ijodiy vazifalarini to'la-to'kis bajara olmaydi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida mediaindustriya muhim o'rinda turadi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniya yalpi ichki maahsulotining 3 foizini OAV keltiradigan daromad tashkil etadi. Ayni paytda, 1990-yillarda axborot va reklama bozorining rivojlanishi shu qadar jadal bo'lganki, iqtisodiy o'sishning umumiy sur'ati 7.5 foizni tashkil etgan paytda, mediaindustriya sohasida bu o'sish 11.2 foizga teng bo'ladi [2. 7-ctr]. Postindustrial jamiyat nazariyasi asoschisi E.Toffler axborot bozorining ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildiradi: "axborot iqtisodiyoti sharoitida ichki siyosatning muhim masalasi boylikning taqsimlanishi (yoki qayta taqsimlanishi) emas, balki o'sha boylikni keltirib chiqarayotgan axborot va medianing taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lib qoladi" [3. 61-str]. Ushbu nazariyani keyinchalik kshplab olimlar davom ettirdi. Ular orasida Yaponiyada Axborot jamiyati institutiga asos solgan olim Y.Masudaning g'oyasi ham e'tiborga molikdir: "ijtimoiy evolyusiyaning yakuniy maqsadi moddiy to'kin sochinlik yaratilgan jamiyat emas, balki insonning aqliy qobiliyat va imkoniyatlarining to'la namoyon etilishini ta'minlaydigan jamiyatni shakllantirish bo'lishi kerak. Bunda yangi axborot texnologiyalari jamiyatni boshqarishda ham asosiy rolni bajaradi" [1. 8-b]. Shunday qilib axborotning tovarga aylangani, ushbu soha esa nafaqat iqtisodiyot, balki siyosat va ijtimoiy taraqqiyotga katta ta'sir o'tkazayotganini statistik ko'rsatgichlar tasdiqlamoqda, yetakchi olimlar uchun esa bu tadqiqot dolzarb mavzuga aylangan. "Axborot uchun axborotni u yoik bu shaklda qo'lga kiritish erkinligi uchun kurash jahon miqyosida ham, alohida mintqa yoki davlat miqyosida ham mavjud bo'lgan va davom etadigan muammolardandir. Axboriy jamiyatda axborotning tovar, mulk maqomida turishi, pul, daromad manbai ekanidan dalolat beradi" [4. 22-b]. Jurnalistikaning asosiy yo'nalishiga aylanib qolayotgan yangiliklar, kelajakda boshqa janrlarni siqib chiqarishi haqidagi bashoratlar borgan sari ko'p mutaxassislar tomonidan aytilmoqda. Darhaqiqat, o'n satrga joy bo'ladigan yangiliklar OAVning deyarli barcha funksiyalarini aks ettira oladigan bo'lib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda axborot muhim iqtisodiy resursga, axborotlashgan jamiyat tushunchasi esa, nafaqat texnologiya, balki iqtisodiyot, madaniyat, zamon va makon ta'rifi ga aylanib qolgan. Bu ma'noda axborotning biznes olamidagi o'rnini belgilash qiyin emas.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qosimova N. Bosma ommaviy voistalar uchun qo'llanma. T.: 2008.
2. Медиаэкономика зарубежных стран: Учебное пособие. Елена Вартанова. –М.: Аспект-Пресс, 2003.
3. Тофлер Э. Третья волна. М.: изд.АСТ, 1999.
4. Ernazarov Q. Reportyorlik faoliyati nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. O'zMU. 2002.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

## **III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 12-fevral

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.